

SHARQ SIYOSATI VA MILLIY UYG'ONISH

*Alisher Iskandarov – Buxoro davlat muzey qo'riqxonasi Romitan
o'lkashunoslik muzey filial ilmiy xodimi*

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Abdurauf Fitratning Buxoro inqilobiga qadar bo'lgan davrdagi ijodi tahlil qilinadi. Fitratning asarlari milliy uyg'onish, jamiyatni isloh qilish va Sharq mamlakatlarining mustamlakachilik siyosatiga qarshi ogohlantirish g'oyalarini o'zida mujassamlashtirgan. Maqolada uning "Sayha", "Munozara" va "Hind sayyohi" kabi asarlari hamda "Sharq siyosati" risolasi siyosiy, ijtimoiy va geosiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, G'arb mustamlakachilarining Sharqdagi strategiyasi, milliy til va madaniyatga ta'siri hamda Turkiston xalqlari taqdiri masalalari o'rganiladi. Maqola Fitratning siyosiy tafakkuri, milliy ongini uyg'otish va ilmiy tahlil asosidagi qarashlarini yoritib, uning milliy va tarixiy ahamiyatini ko'rsatadi.*

***Kalit so'zlar.** Abdurauf Fitrat, Buxoro inqilobi, Jadidchilik, Mustamlakachilik siyosati, Sharq va G'arb munosabatlari, Milliy uyg'onish, Siyosiy tafakkur, Turkiston taqdiri, Ma'rifatparvarlik.*

XX asr boshlarida Turkiston va Sharq mamlakatlari xalqaro siyosiy maydonda murakkab vaziyat bilan yuzma-yuz kelgan davrda Abdurauf Fitratning ijodi alohida ahamiyat kasb etdi. U nafaqat adabiy va ma'rifiy g'oyalarni ilgari surgan, balki xalqaro siyosiy jarayonlarni chuqur tahlil qilgan yetuk ziyoli sifatida tanilgan. Fitratning asarlari milliy uyg'onish, ijtimoiy islohot va davlat taraqqiyoti masalalarini teran anglab yetgan holda, o'sha davrning murakkab ijtimoiy-siyosiy muhitini yoritishga xizmat qilgan.

U o'z risolalarida G'arb davlatlarining Sharq xalqlariga nisbatan olib borgan mustamlakachilik siyosatini ilmiy asosda tahlil qilgan va uning uzoq muddatli oqibatlariga e'tibor qaratgan. Shu bilan birga, u Turkiston xalqlarini dunyoda sodir bo'layotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy voqealardan xabardor qilishga, milliy

birlik va ma'rifiy uyg'onishni ta'minlashga chaqirgan. Fitratning bu jihatlari uning nafaqat adib, balki siyosatshunos va ma'rifatparvar sifatidagi o'rni beqiyos ekanini ko'rsatadi.

Mazkur maqolada Fitratning xalqaro siyosiy vaziyatni tahlil qilgan risolalari, G'arb mustamlakachiligi ta'siri va Turkiston xalqlari taqdiri bilan bog'liq qarashlari kengroq tahlil qilinadi hamda uning milliy ongini uyg'otish va siyosiy hushyorlikni shakllantirishdagi roli yoritiladi.

Buxoro inqilobiga qadar bo'lgan davrda Abdurauf Fitrat ijodi milliy uyg'onish g'oyalari, jamiyatni isloh qilish va yurt taraqqiyotini jahon miqyosiga olib chiqish masalalariga bag'ishlanganligi bilan alohida ajralib turadi. Fitrat o'z asarlarida mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzumning zaif jihatlari tanqidiy ruhda tahlil qilar ekan, avvalo, ma'rifat, ilm-fan va zamonaviy tafakkur orqali millatni taraqqiyot yo'liga olib chiqish mumkinligini asoslashga harakat qiladi. Uning fikricha, jamiyatni yangilash avvalo inson tafakkurini yangilashdan boshlanadi.

Shu ma'noda adibning "Sayha" she'rlar to'plami, "Munozara" hamda "Hind sayyohi" asarlari o'z davri uchun muhim ma'rifiy va siyosiy dastur vazifasini o'tagan. "Sayha" to'plamidagi she'rlar millatni uyg'otishga, jaholat va tanazzuldan chiqishga da'vat ruhida yozilgan bo'lsa, "Munozara" asarida an'anaviy fikrlash bilan yangicha qarashlar o'rtasidagi bahs orqali islohot zarurati asoslab beriladi. "Hind sayyohi"da esa Sharq mamlakatlari hayoti misolida mustamlakachilik siyosatining oqibatlari ochib beriladi hamda taraqqiyot uchun mustaqil fikr va siyosiy hushyorlik lozimligi ta'kidlanadi.

Fitrat asarlarini chuqur o'rganish shuni ko'rsatadiki, u XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida G'arb dunyosining Sharq xalqlariga nisbatan olib borgan mustamlakachilik siyosatini teran anglagan va uni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilgan ziyolilardan biridir. U mustamlakachilikni faqat harbiy yoki iqtisodiy bosqin sifatida emas, balki ma'naviy-madaniy asorat shakli sifatida ham talqin qiladi. Fitrat nazarida mustamlaka siyosati milliy til, madaniyat va o'zlikni yemiruvchi jarayon bo'lib, uning oqibatlari uzoq muddatli va xavflidir.

Adibning siyosiy tafakkuri ayniqsa "Sharq siyosati" maqolasida yaqqol

namoyon bo'ladi. Mazkur maqola 1919 yil oktabr oyida "Ishtirokiyun" gazetasida e'lon qilingan bo'lib, keyinchalik "Tanlangan asarlar"ning uchinchi jildiga kiritilgan. Ushbu risola Birinchi jahon urushidan keyingi xalqaro siyosiy vaziyatni chuqur tahlil etishi bilan ahamiyatlidir. Fitrat Yevropa davlatlarining Sharq mamlakatlariga nisbatan olib borgan tajovuzkor siyosatini faktlar asosida ochib beradi va bu jarayonning mohiyatini imperialistik manfaatlar bilan izohlaydi.

Maqolada Angliyaning Hindiston va Misrdagi siyosati, Rossiya imperiyasining Kavkaz va Turkistondagi harakatlari, Fransiyaning Shimoliy Afrikadagi bosqinchiligi misol tariqasida keltiriladi. Fitrat bu misollar orqali mustamlakachilik siyosatining tizimli va rejalashtirilgan xarakterga ega ekanini ko'rsatadi. Uning ta'kidlashicha, agar Sharq xalqlari siyosiy hushyorlik va birlikni namoyon etmasalar, ular to'liq iqtisodiy va ma'naviy qaramlikka tushib qolish xavfi ostida qoladilar.

Fitratning tashvish va iztiroblari ayniqsa milliy madaniyat va til taqdiri bilan bog'liq masalalarda yaqqol seziladi. U boshqa mustamlaka o'lkalardagi ahvolni misol qilib, milliy tilning yo'qolishi, ma'naviy qadriyatlarining yemirilishi va milliy o'zlikning susayishi qanday fojiali oqibatlariga olib kelishini ko'rsatadi. Bu ogohlantirishlar aslida Turkiston xalqlarini hushyorlikka chaqirish, ularni milliy birlik va ma'rifat yo'lida birlashishga undash maqsadida ilgari surilgan edi.

Umuman olganda, Fitratning Buxoro inqilobigacha bo'lgan davrdagi ijodi nafaqat adabiy, balki siyosiy-falsafiy ahamiyatga ham ega. U milliy istiqlol g'oyasini ma'rifat, siyosiy ong va ijtimoiy islohotlar bilan uzviy bog'liq holda talqin qiladi. Fitratning siyosatshunos sifatidagi qarashlari keyingi tarixiy voqealar jarayonida o'z tasdig'ini topdi. Mustamlaka zulmini boshdan kechirgan Turkiston xalqlari uning ogohlantirishlarida chuqur haqiqat mujassam ekanini tarixiy tajriba orqali angladilar.

Xorijiy mamlakatlardagi tahsili va sayohatlari davomida siyosiy ongini shakllantirgan Abdurauf Fitrat o'z risolasida kapitalistik davlatlarning tobora Sharq sari siljib borayotganini qayta-qayta ta'kidlaydi. U mazkur jarayonni tasodifiy emas, balki aniq siyosiy strategiya va imperialistik manfaatlar mahsuli sifatida talqin

qiladi. Fitratning fikricha, G'arb davlatlarining iqtisodiy kuchi va harbiy qudrati Sharq mamlakatlarini bosib olish hamda ularni siyosiy-ijtimoiy jihatdan qaram holga keltirishga qaratilgan edi.

Risolasida u aniq tarixiy misollarni keltiradi: inglizlarning Hindistonni egallashi, Misrni bosib olishi, Adan orqali Arabistonga ta'sir doirasini kengaytirishi; rus imperialistlarining Kavkazni talashi, Turkistonga kirib kelishi hamda Xitoy, Afg'oniston va Eronga ko'z tikishi; fransuzlarning Tunis va Jazoirni g'asb etib, Falastinga intilishi — bularning barchasi Sharqqa nisbatan izchil va tajovuzkor siyosat olib borilganidan dalolat beradi. Fitrat bu faktlarni sanab o'tish orqali mustamlakachilik harakatlarining ko'lamini ochib beradi va Sharq xalqlari qanday umumiy xavf ostida qolganini ko'rsatadi.

Uning tahlillarida chuqur tashvish va iztirob ohangi seziladi. Fitrat Yevropa davlatlari tomonidan Sharq mamlakatlarining birin-ketin bosib olinayotganini qayd etar ekan, agar bu jarayon davom etsa, Sharq o'lkalari bir kun kelib butunlay G'arb davlatlariga itoat etib qolishi mumkinligini afsus bilan yozadi. Bu ogohlantirish bevosita Turkiston xalqlariga qaratilgan bo'lib, ularni siyosiy hushyorlikka, milliy birlikka va ma'rifiy uyg'onishga chaqiradi.

Adib ayniqsa boshqa mustamlaka o'lkalardagi ma'naviy tanazzul misolida kelajak xavfini yanada yaqqolroq ko'rsatadi. Risolada misrlik bir yozuvchining Jazoir haqidagi fikrlari keltiriladi. Unda fransuz mustamlakachiligi natijasida shahar aholisi orasida milliy axloq va qadriyatlarining yemirilgani, milliy tilning yo'qolish darajasiga yetgani, hatto aholining bir qismi o'z ona tilini bilmay qo'ygani ta'kidlanadi. Tilning aralashib ketishi, yarim arabcha, yarim fransuzcha nutqning paydo bo'lishi milliy o'zlikning yemirilish belgisi sifatida talqin qilinadi.

Fitrat bu misolni shunchaki tarixiy ma'lumot sifatida emas, balki ibrat va ogohlantirish sifatida keltiradi. Uning nazarida Jazoir xalqining boshiga tushgan ma'naviy kulfat yaqin kelajakda Turkiston xalqlari taqdirida ham takrorlanishi mumkin edi. Shu bois u bunday salbiy oqibatlarining oldini olish uchun millatni uyg'otish, siyosiy vaziyatni tushuntirish va mustaqil fikrni shakllantirish zarurligini uqtiradi.

Umuman olganda, Fitratning mazkur qarashlari uning nafaqat adib va ma'rifatparvar, balki yetuk siyosatshunos sifatida ham shakllanganini ko'rsatadi. U mustamlakachilikni faqat hududiy bosqin emas, balki milliy til, madaniyat va ma'naviyatni yemiruvchi murakkab jarayon sifatida tahlil qiladi. Keyingi tarixiy voqealar, xususan Turkiston xalqlarining mustamlaka zulmini boshdan kechirishi Fitratning ogohlantirishlari qanchalik asosli va haqiqatga yaqin bo'lganini tasdiqladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар: Ж. III. Драмалар, мақолалар. – Т.: “Маънавият”, 2003. – 256 б.
2. Ражабов Қ. Тарбия атоғол // Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 8 жилд. –Тошкент. Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2004. – Б. 271
3. Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар// Асарлар. –Тошкент: Бадий адабиёт, 1963. 1 жилд. – Б. 91.
4. Фитрат А. Танланган асарлар. Илмий рисолалар. -Тошкент: Маънавият, 2001. 5 жилд. - Б.285; Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. Т.: “Ўзбекистон” 2008. – Б. 125.
5. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустанлакачилиги даврида. Илмий муҳаррир: М.Жўраев. – Тошкент: “Шарқ”, 2000. – Б.153
6. Ахmatov А. Ёшларнинг камол топишида миллий мактаблар масаласи (Фитрат ва Бехбудий асарлари мисолида). Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан ҳозиргача) мавзусидаги Республика илмий-амалий (онлайн) конференция материаллари, Бухоро, 2021. – Б. 220-222.
7. Ахmatov А. Таълим тизимида ислохотлар учун кураш (Бухоро адабий муҳити вакиллари иштирокида. Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№1 (70), Хоразм Маъмун академияси, 2021 й. –Б. 84-87 ([http://mamun.uz/uz/page/56,](http://mamun.uz/uz/page/56))